

 [Betti PDF ta'rizde ju'klep ali'w \(53 Kb\)](#)  [Versiyasi'](#)  [Betti doc ta'rizde ju'klep ali'w \(53 KB\)](#)

Qoraqalpog'istonda mahalliy hokimiyat organlari salohiyatini kuchaytirish uchun murabbiylar guruhi shakllantirildi

2012 yil 10-14 avgust kunlari Qoraqalpog'istonning ta'lim muassasalari, biznes assotsiatsiyalari, mahalliy hokimiyat organlari vakillari va jamoatchilik faollari "Katta yoshlilarni o'qitish uslubiyati: kurslar va seminarlarni o'tkazishning interaktiv usullari va texnologiyalari" bo'yicha tayyorgarlikdan o'tdilar. Trening BMTning insoniyat xavfsizligi bo'yicha Maqsadli Jamg'armasining moliyaviy ko'magida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan hamkorlikda BMTning O'zbekistondagi beshta agentligi, xususan, BMTTD, YuNESKO, YuNFPA, BST va BMT ko'ngillilari tomonidan amalga oshirilayotgan BMTning "Orol dengizi inqirozidan aziyat chekkan aholi turmush faoliyatini ta'minlash" Hamkorlikdagi Dasturi tomonidan tashkil etildi. BMTning Hamkorlikdagi Dasturi maqsadli ravishda Qoraqalpog'istonning uchta tumanida, xususan, Mo'ynoq, Shumanay va Qonliqo'l tumanlarida mahalliy hokimiyat organlari (hokimliklar) salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan hamda samarali iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni shakllantirish va yuritish, shuningdek, Orolbo'yi hududlaridagi krizisning oqibatlarini kamaytirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yo'naltirilgan tashabbusni amalga oshirishga kirishdi. Mazkur tashabbus doirasida BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari, natijaga qaratilgan boshqaruv (RBM), monitoring va baholash hamda BMTning Hamkorlikdagi Dasturi doirasidagi boshqa yo'nalishlar bo'yicha keyinchalik mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari xodimlari uchun ta'lim kurslarini taqdim etish uchun o'n beshta murabbiy tanlab olindi. Mazkur trening murabbiylarni kompleks tayyorlashning birinchi bosqichi bo'lib, ularga katta yoshli auditoriya bilan samarali ishlash uchun bilim va malakani berishga qaratilgandir. O'quv jarayonida qatnashchilar katta yoshli auditoriyani o'qitish tamoyillari bilan tanishdilar hamda muvaffaqiyatli murabbiy tavsifini muhokama qildilar. Murabbiylikka nomzodlar tinglovchilarning qiziqtirira olish usullarini, anglash turlarini, kommunikatsion andozalarini, shuningdek, o'quv taqdimotlari va rejalarini ishlab chiqishning turli texnik yo'llarini o'rgandilar. Shu bilan birga, treningning amaliy qismiga alohida e'tibor qaratilib, bunda murabbiylikka nomzodlar o'z o'quv rejalarini ishlab chiqdilar hamda video-treningdan foydalangan holda yakuniy imtihondan o'tdilar. Olingan bilimlar va ko'nikmalarni murabbiylar 2012 yilning noyabr oyida MRM va qat'iy rivojlanish bo'yicha treninglar jarayonida qo'llashlari mumkin bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, barcha o'quv kurslari bo'lajak tinchlovchilar uchun mahalliy tilda o'tkazilib, davlat va nodavlat tashkilotlari vakillarining keng doirasini qamrab olishga imkoniyat yaratadi. **Qo'shimcha ma'lumot uchun murojaat qiling:** Zakiya Abdurazakova - Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis Y. G'ulomov ko'chasi, 1 uy, Toshkent, 100000, O'zbekiston Tel: (+998 71) 232-20-91, (+998 71) 232-20-92 Ernazar Alakoz ko'chasi, 56 uy, Nukus, Qoraqalpog'iston Tel: (+998 61) 224-13-81, faks: (+998 61) 224-16-35 Email: zakiya.abdurazakova@undp.org

Ko'rip shi'g'i'ldi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)